



ZARDUSHTIYLIK SHAKLLANISHI

DAVRIDA MARKAZIY
OSIYONING TABIIY
IQLIMI VA UNING DINIY
TAFAKKURGA TA'SIRI



Kushakov Safarali Yusupovich,

Termiz davlat universiteti
O'zbekiston tarixi va manbashunoslik
kafedrasida katta o'qituvchisi, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya:

Mazkur maqolada zardushtiylik shakllanishi davrida Markaziy Osiyoning tabiiy landshafti, iqlimi, suv manbalari va ekologik sharoitining diniy tafakkurga ta'siri tahlil qilindi. Avesto ma'lumotlari hamda arxeologik topilmalar asosida tabiat unsurlarining muqaddaslashtirilishi, dualistik qarashlarning shakllanishi va zardushtiylikning tabiiy-geografik omillar bilan bog'liqligi yoritiladi.

Kalit so'zlar:

Zardushtiylik, tabiiy landshaft, Avesto, dualizm, Ariyanam Vaejah, diniy tafakkur.

ПРИРОДНО-КЛИМАТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ПЕРИОД ФОРМИРОВАНИЯ ЗОРОАСТРИЗМА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЕЛИГИОЗНОЕ МЫШЛЕНИЕ

Аннотация:

В данной статье анализируется влияние природного ландшафта, климата, водных ресурсов и экологических условий Центральной Азии на религиозное мышление в период формирования зороастризма. На основе данных Авесты и археологических находок рассматриваются сакрализация природных элементов, формирование дуалистических представлений и взаимосвязь зороастризма с природно-

географическими факторами.

Ключевые слова:

Зороастризм, природный ландшафт, Авеста, дуализм, Арианам Вайджах, религиозное мышление.

THE NATURAL CLIMATE OF CENTRAL ASIA DURING THE FORMATION OF ZOROASTRIANISM AND ITS INFLUENCE ON RELIGIOUS THOUGHT

Abstract:

This article analyzes the influence of the natural landscape, climate, water resources, and ecological conditions of Central Asia on religious thought during the formative period of Zoroastrianism. Based on the data from the Avesta and archaeological findings, it examines the sacralization of natural elements, the formation of dualistic concepts, and the relationship between Zoroastrianism and natural-geographical factors.

Keywords:

Zoroastrianism, natural landscape, Avesta, dualism, Airyanem Vaejah, religious thought.

Kirish

Markaziy Osiyo insoniyat qadimdan yashab kelgan, o'zining rivojlanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'tish jarayonida ko'plab voqeliklarni boshdan kechirgan zamin hisoblanib, moddiy va yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Markaziy Osiyoning qadimgi landshafti – uning iqlimi, relyefi, suv manbalari va o'simlik-hayvonot

dunyosini o'rganish zardushtiylikning shakllanish omillarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Markaziy Osiyoning tabiiy landshaftiga nazar tashlab, u qanday qilib diniy tafakkurga asos bo'lgani haqida fikr yuritimiz. Nima uchun deganda, zardushtiylikning shakllanishida tabiiy-geografik omillarning o'rni ko'pincha umumiy tarzda yoritilgan bo'lib, Markaziy Osiyoning iqlimi va landshaftining diniy tafakkurga, ayniqsa dualistik qarashlar shakllanishiga ta'siri yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan Markaziy Osiyo iqlimi azaldan o'zining sovuq hamda issiq tabiatiga ega. Shuning uchun ham zardushtiylik ta'limotida dualizm g'oyasini ko'rishimiz mumkin. Ana shunday dualizmga Markaziy Osiyo mintaqasining tabiiy iqlim sharoiti mos hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasining iqlimi keskin kontinental, shimoliy qismida mo'tadil, janubda subtropik, qahraton qish va jazirama yozdan iborat. Shimoliy qismida qishi sovuq, yozi issiq, havosi quruq, kam bulutli. Yanvar oyida o'rtacha harorati, shimoliy qismida -17°C , -18°C , janubiy qismida esa, -2°C , -4°C . Eng past daraja, shimoliy qismida -35°C , -40°C , janubda -20°C , -25°C . Iyulning o'rtacha trasi $+25^{\circ}\text{C}$, $+35^{\circ}\text{C}$, shimoliy qismida $+21^{\circ}\text{C}$, $+22^{\circ}\text{C}$. Eng yuqori harorat $+50^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi¹. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Turonning shimolida joylashgan hududlar, ya'ni Avesto tili bilan aytganda, Ahriman tug'ilgan yerlar sovuq bo'lib, aholisi quyosh issig'ini sezmagani. Qadimgi dunyoning dastlabki sivilizatsiya markazlari hisoblangan Ikki daryo oralig'i, Elam, Babil yoki qadimgi Hind sivilizatsiyasi hududlari tabiati issiq bo'lib, ularning aholisi sovuqning salbiy ta'sirini anglamaganlar. Shunday ekan, Turonning o'ziga xos tabiiy sharoiti zardushtiylik ta'limotining bosh g'oyasi hisoblangan dualizmga asos bo'la olgan. Zardushtiylikda tabiat unsurlaridan: olov, suv, yer va havoga e'tibor nihoyatda kuchli bo'lib, bu dinga asos solingan davrdagi tabiiy sharoitlar insonlarning qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tabiiy-ekologik omilning yangi dinning vujudga kelishida ahamiyati haqida to'xtalar ekanmiz, so'nggi bronza davrida sodir bo'lgan iqlim o'zgarishi, ya'ni qurg'oqchilikning oshib borishi ekologik-ijtimoiy muvozanatning izdan chiqishiga olib keladi².

Adabiyotlar tahlili:

Yuqoridagi fikrlar bilan tabiiy iqlim masalasini tushundik. Endi zardushtiylikdagi bosh g'oya bo'lgan, dualizm tushunchasining kun va tun masalalari qay darajada ekanligini yoritib bersak. Avvalo, dualizm so'zining etimologiyasiga e'tibor qaratsak, lotincha so'z bo'lib, dualis – ikki yoqlama degan ma'noda kelib, quyidagi mazmunda ta'rif etiladi: bir-biri bilan birlashtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar yonma-yon

mavjudligi targ'ib qiluvchi ta'limot bo'lib, bu tushuncha nemis faylasufi X. Volf tomonidan fanga kiritilgan³. Taniqli olim S.P. Tolstov "dualizm" so'zini quyidagicha izohlaydi: "Qadimgi Xorazm shahar va qishloqlarining dual tarzda tuzilganligi, ya'ni ikkiga bo'linganligini, shubhasiz, dual urug'chilik tuzumi an'analari yaxshi saqlanib qolganligidan darak beradi. Bu zardushtiylik dini dualizmining kelib chiqishi uchun asos bo'ladi"⁴. Bu haqda adabiyotshunos olim Tilab Mahmudov shunday fikr bildirgan: "Biz dual va devor so'zlarining ma'no jihatdan o'zaro yaqinligi bilan dualizmga asos bo'lgan deyish fikridan uzoqdamiz. Ammo agar dual yoki devor so'zlari hovli-joyni ajratib yoki birlashtirib olish ma'nosida qo'llanishi va dualizm mohiyati bilan ham moddiy va ma'naviy jarayonlarini ajratib yoki birlashtirib fikr yuritish ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu jarayon kishini o'ylantirib qo'yadi⁵. Zardushtiylikdagi asosiy konsepsiya – dualizm g'oyasi, faqat diniy-falsafiy qarash emas, balki u muayyan tabiiy-iqlimiy, ekologik va ijtimoiy sharoitlarning mahsuli sifatida shakllangan. Turon hududining sovuq iqlimi, tog' barelyefi va Avestoda Ahriman tug'ilgan yerlar bilan bog'liq tasavvurlar, aholining quyosh nuriga ehtiyoji va sovuqqa nisbatan hissiy munosabat orqali nur va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik kabi qarama-qarshi kategoriyalar tafakkurda kuchli aks ettirilgan. Dualizmning kun va tun kabi tabiiy hodisalarga bog'liq tushunchalari ham bu qarama-qarshiliklarning muhim qismidir.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Jumladan, tarixiy-komparativ, manbashunoslik (tekstologik), arxeologik va geografik-deterministik usullar uyg'un holda tatbiq etildi. Markaziy Osiyoning qadimiy diniy-falsafiy qarashlar shakllangan muhim madaniy-geografik hudud sifatidagi o'rni tahlil qilinib, ayniqsa miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda yuzaga kelgan diniy tizimlarning keyingi yirik dinlar shakllanishiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Avesto matnlari (xususan, Videvdot va Yasht qismlari) tekstologik va semantik tahlil qilindi. Ushbu manbalarda yer, suv va havo kabi tabiat unsurlarining muqaddaslashtirilishi, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatining diniy ahamiyat kasb etishi orqali tabiiy landshaftning diniy tafakkurga ta'siri ochib berildi. Shuningdek, tarixiy-geografik rekonstruksiya usuli asosida Avestoda tilga olingan Ariyanam Vaejah, Daitya daryosi kabi tushunchalar ilmiy izohlandi. Lingvistik tahlil orqali "Daitya" gidronimining kelib chiqishi va uning Amudaryo bilan bog'liqligi yoritildi. Geografik-deterministik yondashuv asosida suv tanqisligi, yaylovlarning yetishmovchiligi, iqlimiy o'zgarishlar kabi omillarning ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarga olib kelgani hamda bu jarayonlarning

1 Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т ҳарфи. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004. – Б. 782.

2 Dolukhanov P.M. The ecological prerequisites for early farming in Southern Turkmenia. In P. L. Kohl (Ed.), The Bronze Age Civilization of Central Asia. Recent Soviet Discoveries. – New York: M.E. Shape, 1981. – P. 359–385.

3 URL: <https://uz.wikipedia.org>

4 Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: Фан, 1964. – Б. 102.

5 Махмудов Т. "Авесто" ҳақида. – Тошкент: "Шарк" НМАК, 2000. – Б. 288.

diniy qarashlar, jumladan, zardushtiylik ta'limotining shakllanishiga ta'siri tahlil qilindi.

1. Tarixiy-komparativ metodologiya

Ushbu yondashuv asosida Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda shakllangan diniy e'tiqodlar o'zaro taqqoslandi. Zardushtiylikning boshqa qadimgi diniy tizimlardan farqli jihatlari va umumiyliklari aniqlanib, uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Ayniqsa, dualistik qarashlarning shakllanishi va ularning tabiiy muhit bilan bog'liqligi tarixiy jarayonlar kontekstida tahlil qilindi.

2. Manbashunoslik (tekstologik) metodologiya

Avesto matnlari asosiy manba sifatida chuqur tekstologik tahlil qilindi. Videvdot va Yasht qismlaridagi tabiat unsurlariga oid ma'lumotlar semantik jihatdan o'rganilib, Apas (suv), Zam (yer), Atar (olov) tushunchalarining diniy-falsafiy mazmuni ochib berildi. Ushbu yondashuv orqali zardushtiylikda tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik konsepsiyasi asoslab berildi.

3. Tarixiy-geografik metodologiya

Mazkur metod asosida Avestoda uchraydigan geografik nomlar va hududlar rekonstruksiya qilindi. Ariyanam Vaejah, Daitya daryosi kabi tushunchalar tarixiy-geografik nuqtai nazardan tahlil etilib, ularning real hududlar bilan bog'liqligi aniqlashtirildi. Xususan, Daitya gidronimining Amudaryo bilan uyg'unligi ilmiy asosda ko'rsatib berildi.

4. Geografik-deterministik metodologiya

Ushbu yondashuv doirasida tabiiy omillarning (iqlim, suv resurslari, yaylovlar) jamiyat taraqqiyotiga va diniy tafakkur shakllanishiga ta'siri o'rganildi. Suv tanqisligi, iqtisodiy qiyinchiliklar va migratsiya jarayonlarining kuchayishi zardushtiylik ta'limotida aks etgan ijtimoiy tanqidiy qarashlar bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

5. Sotsial-ekologik yondashuv

Mazkur metodologiya asosida zardushtiylik dini faqat diniy tizim sifatida emas, balki ekologik va ijtimoiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan tizim sifatida o'rganildi. Xaoma kulti, ortiqcha qurbonliklar va resurslar isrofiga qarshi qarashlar ekologik muvozanatni saqlash g'oyasi bilan bog'liq holda talqin qilindi.

Hanuzgacha xalqimiz tilida 3 mingga yaqin xorazmcha so'zlar, toponimik joy nomlari, tarixiy atamalar saqlanib kelinmoqda. Shuningdek, Mazdubast – Tuyamo'yin darasi, Axriman g'ori, Sulton tog'i, Bitnak-Pitnak, Indavak, Arbak, Karvak, Xosiyon, Osiyon, Hindigon, Pishkanak, Arda Xiva, Artamshix, Roxfanik, Irdimzon, Sardoba, Mazdakxon, Xushtimison, Savkon

singari qa'la va qishloq nomlari talaygina. Yuqorida nomi tilga olingan tarixiy jug'rofiy atamalar, afsona, etaklar hamda rivoyatlarni kengroq tahlil qilish va chuqur o'rganish davrimiz o'lkashunoslarining kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biridir.

Tahlil va natijalar.

Qachonki moddiy va yozma manbalarni qiyosiy jihatdan taqqoslasak, ular fanga bir butunlikni beradi. Markaziy Osiyoning yuragi hisoblanmish qadimgi Baqtriyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlari E.A. Grantovskiyning miloddan avval V asrdan oldingi hind manbalarida बह्लीक “Bāhlika” atamasi uchrashi haqidagi tadqiqotlari¹ va Avestoda esa Bāxōī – “Baxdi” shaklda uchraydi². Shuningdek, Baqtriya Videvdotning birinchi bobida Ahura Mazda tomonidan yaratilgan qadimgi 16 mamlakat nomi qatorida tilgan olingan³.

Birinchi o'lka Ayrānem-vaedjo bo'lib, go'zallikda u bilan hech kim tenglasha olmaydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar Xuroson yoki Amudaryo vodiysi bilan bog'laydi (Afg'oniston, Tojikiston, O'zbekiston sharqiy qismi).

Ikkinchi o'lka Sughda (So'g'd) odamlar va chorvaga boy (Zarafshon, ya'ni Samarqand va Buxoro atroflari).

Uchinchi o'lka Mouru (Marg'iyona) qudratli boy (hozirgi Mary shahri Turkmaniston).

To'rtinchi o'lka Bāxōī (Baqtriya) bayrog'i baland yurt (Shimoliy Afg'oniston, Balx atrofi, ya'ni Mozori sharif).

Beshinchi o'lka Nisāya (Nishapur) Eron shimoli-sharqiy qismida joylashgan.

Oltinchi o'lka Harōiva Afg'onistondagi Heart viloyati atrofi (Harirud daryosi Afg'onistondagi Bomiyon tog'laridan, Hindikush tog' tizmasi).

Yettinchi o'lka Vaekereta, Balx daryosi (forscha: Pashtu push) atrofi hozirgi Afg'oniston shimoliy g'arbi, Hindikush tog'laridan boshlanadi.

Sakkizinchi o'lka Urva yoki Vurukash, Orol dengizi bo'yi ba'zi tadqiqotchilar Xorazm ham deb talqin qiladilar.

To'qqizinchi o'lka Khnenta (taxminan Qandahor).

O'ninchi o'lka Haraxvaiti yoki Araxozia (Hilmand daryosi vodiysi, Afg'oniston).

O'n birinchi o'lka Haetumant (Hilmand daryosi vodiysi, Afg'oniston).

O'n ikkinchi o'lka Ragha (Ray) Tehron yaqinda joylashgan.

1 Грантовский Э.А. Иран и иранцы до Ахеменидов. Основные проблемы. Вопросы хронологии. – М., 1998. – С. 106-107.

2 URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/География_Авесты

3 Авеста: Видевдот китоби (М. Исҳоқов таржимаси). – Тошкент, 2007. – Б. 10–19.

O‘n uchinchi o‘lka Chakhra hozirgi Kaspiy bo‘yi atrofiga to‘g‘ri keladi.

O‘n to‘rtinchi o‘lka Varena yoki Varna bu hudud masalasi bo‘yicha ko‘plab talqinlar mavjud, ba‘zilar bu joyni Xorazm yoki Eron shimoli bilan bog‘lashadi.

O‘n beshinchi o‘lka Hapta Hendu, ya‘ni Yetti Hind; Hind daryosi vodiysi (hozirgi Pokiston hududi).

O‘n oltinchi o‘lka Rangha bo‘lib, ba‘zi tadqiqotchilar Volga daryosi bilan bog‘laydi. Bu joy Avesto geografiasida eng uzoq joy deb tilga olingan⁴. Mil. avv. II ming yillikda Markaziy Osiyoning shimoliy-sharqiy tomonida, Tog‘li Oltoydan Sirdaryoning quyi havzalarigacha bo‘lgan hududlarda, xususan, Qozog‘iston cho‘llari, Enisey havzalari, Balxash ko‘li atroflari, Janubiy-sharqiy Uralorti hududlari, Tog‘li Oltoy, umuman, janubiy Sibir o‘lkalarida chorvador andronova qabilalari yashgan. Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalariga kelganda ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlar ro‘y beradi. Chorvador dasht jamoalari kundalik turmush tarzida ot, tuya va novvosdan transport vositasi sifatida foydalanishga o‘tgach, ularning hayotida ko‘chmanchi chorvachilik qaror topdi. Yuz bergan bu tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning mevasi sifatida chorvador jamoalar tarkibida badavlat mulk egalari va, natijada, hayvonlarga ega jamoa sardorlari yetishib chiqadi. Chorva hayvonlarni boqish va qo‘riqlash, tobora rivojlanib borayotgan chorvachilik xo‘jaligi uchun yangidan yangi yaylovlar topish va kengaytirish mulkdor chorvadorlar oldida turgan hayotiy vazifa bo‘lib qoldi. Bu muammolarning yechimi jamoa tarkibida jangovar suvoriylar qo‘shinini tashkil qilishni taqozo qilardi. Ular ijtimoiy hayotda jamoaning erkin, ozod, suvoriy mulkdor tabaqasi bo‘lib, ular Avestoda oriylar deb yuritilgan. Ular yashagan yurt Avestoda oriylar vatani, oriylar kengligi, ya‘ni Ariyanam Vaychah deb nomlanadi⁵. Quyidagi jadvalda Nargis Xodjayeva tadqiqotlari asosida Avesto va pahlaviy manbalarida qayd etilgan, Shimoliy Baqtriya hududlari tarkibiga kirgan Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik hudud nomlari ilmiy jihatdan tahlil qilgan⁶.

№	Avestoda toponim, oronim va gidronimlarning nomi	Pahlaviy manbalarda toponim, oronim va gidronimlarning nomi	Ularning joylashuvi (lokalizatsiyasi)
1.	Arianam Vaydja-Airiianəm vaējah <i>эки ваējō</i>	O‘rta forcha Eranvej-Ērān-vēž	O‘rta Osiyo, Janubiy Qozog‘iston, Afg‘oniston, Sharqiy Eron
2.	Baxdi-bāxōi		Surxon vohasi, Shimoliy Afg‘oniston, Janubiy Tojikiston
3.	Xara Berezaiti – harā bərəzaitim-; harā-bərəzaitī	Alburz – Albūrz Xugari Buland – Hūkar-Buland	Tyanshan, Pomir va Hindikush tog‘ tizmalari
4.	Vaxvi-Daitiya (vaḡhuii ā dāitiiai ā-, vaḡhuuī dāiti)	Vexrud – Weh-rōd Daitik – Dāitīk-rōd	Amudaryo ⁷
5.		Tormed-rod (Tōrmed-rōd) yoki Teremet – teremet-rōd	Termiz daryosi, hozirgi Surxondaryo ⁸
6.	Xvanavant		Termiz tumani yoki Qunduz va Ishkamish tumanlari hududidagi tog‘ Ko‘hitangtog‘ tizmasi
7.	Zerdaza	Zaridaz	Zarautsoy bo‘ylab joylashgan tog‘ tizmasi
8.	Udrya		Hisor tog‘ tizmasi

Bugungi kun fan yangiliklariga nazar solsak, Baqtriya va unga tutash bo‘lgan hududlarning boshqaruv tizimi ahamoniylar bosqiniga qadar podsho emas, balki Avestoda nomi keltirilgan kaviylar boshqargan⁹. Kaviylik tituli

4 Avesta. “Закон против дэвов” (Видевдат). Адаптированный перевод, исследование и комментарии Э.В.Ртвеладзе, А.Х.Саидова, Е.В.Абдуллаева. – СПб., 2008. // Дьяконов М.М. Очерк истории древнего Ирана. – М., 1961. – 444 с.

5 Аскаров А. Ориилар муаммоси: янгича карашлар ва ёндашувлар. // “Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда”. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 71.

6 Ходжаева Н.Д. Историческая география Центральной Азии по данным “Авесты” и пехлевийских источников: автореф. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2000. – 22 с.

7 Ходжаева Н.Д. Историческая география Центральной Азии в доисламский период. – Душанбе: Дониш, 2017. – С. 185.

8 Лившиц В.А. Древнее название Сырдарьи // ВДИ. 2003. – №1. – С. 7. / Ходжаева Н.Д. Историческая география Центральной Азии в доисламский период. – Душанбе: Дониш, 2017. – С. 177.

9 Дьяконов И.М. Восточный Иран до Кира (К возможности новых постановок вопроса) // История Иранского государства и культуры. – М., 1971.



1-Rasm Ko‘hitangtog‘ dahmalarini joylashishi

nasldan naslga yoki avlodan avlodga o‘tishi oliy xudo hisoblanmish, Ahura Mazda tomonidan tasdiqlab qo‘yilgan¹. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalarida yuksak darajada taraqqiy etgan qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona va Marg‘iyona tarixiy-madaniy o‘lkalari tarixiy geografiyasini o‘rganishda A.S.Sagdullayevning ilmiy tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Olim o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyoning tarixiy geografiyasiga oid ko‘plab yozma manbalarni arxeologik materiallar bilan uzviy bog‘lagan. Jumladan, Avestoda keltirilgan jamoalarni arxeologik manbalar bilan qiyosiy o‘rganib, Markaziy Osiyo hududidagi qadimgi davlatlarning taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilib bergan². Shimoliy Baqtriya hududida mil. avv. II ming yillik oxiri – I ming yillikka oid yangi sug‘orish rayoni va u yerda joylashgan 9 ta yangi yodgorlik O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeolog ekspeditsiyasi tomonidan aniqlandi³. Bu, o‘z navbatida, Markaziy Osiyo hududlarining tabiati qadimdan insoniyat uchun qulay geografik o‘lka ekanligidan dalolat beradi. So‘nggi yillarda olib borilgan mahalliy tadqiqotchilarimizdan O.Hamidov ilmiy-arxeologik ishlari tahsinga sazovor. Xususan, O.Hamidov tomonidan Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Poshxurd-Zarabog‘ qishlog‘ida aniqlangan mil. avv. II ming yillik oxiri I ming yillikka oid 10 ta qishloq tipidagi yodgorlik, 220 ta daxma va 175 ta petroglif

aniqlandi⁴. (1-rasm) Ko‘hitang tog‘ boldirlarida joylashgan tosh qalama – daxmalarni o‘rganish alohida ilmiy mavzu bo‘lib, hozirgi kunda bu ilmiy yo‘nalish bo‘yicha Termiz va Karlova universitetlari olimlari kompleks tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ekspeditsiya tomonidan har bir tosh qurilmaning joylashgan o‘rni, koordinatalari, ko‘lamlari (eni, bo‘yi, diametri va balandligi), uch holatdagi ko‘rinishi (tepadan, janubdan va shimoldan hamda kosmosyomkalari) fotometriya usulida suratga olingan. (3-rasm) Tosh qalamalar Ko‘hitangtog‘ soy bo‘ylarida, tekisliklarda, tepalik va qirlarda aniqlangan bo‘lib, joylashishi bo‘yicha umumiy qonuniyatga ega emasligi qayd etilgan⁵. (1-rasm) Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ular yirik tabiiy toshlar to‘plangan hududlarda bunyod etilgan. Bu, ayniqsa, daxmalarning mavjudligi o‘liklarni yerga emas, balki yer sathidan alohida saqlash an‘anasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu zardushtiylikdagi jasadni muqaddas unsur bo‘lgan yer bilan aloqasiz saqlash tamoyiliga uyg‘un keladi. Shu ma’noda ushbu topilmalar zardushtiylikning ilk bosqichlari aynan Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zardushtiylikning shakllanishi Markaziy Osiyoning

1 Икромов Н.М. Кадимги Бақтрия кавийлиги: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Термиз, 2022. – Б. 8.

2 Сагдуллаев А.С. Оседлые области на юге Средней Азии в эпоху раннего железа (генезис культуры и социально-экономическая динамика): автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – М., 1989. – С. 40.


3 Шайдуллаев Ш.Б. Станчо Л. Бақтриянинг Яз I даврига оид янги ёдгорликлари // Археология Узбекистана в годы независимости: достижения и перспективы. Материалы международной научной конференции посвященной 25-летию Независимости Республики Узбекистан. – Самарканд, 2016. – Б. 43-44; Шайдуллаев Ш.Б., Хамидов О.А. Зарабаг – новый ирригационный район в Северной Бактрии периода Кучук I // Цивилизации Великого Шелкового пути из прошлого в будущее: перспективы естественных, общественных, гуманитарных наук. – Самарканд, 2017. – С. 92–97.

4 Хамидов О.А. Шимоллий Бақтриянинг Кучук I даврига оид янги ёдгорликлари: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Самарканд, 2019. – Б. 123.

5 Toshaliyev Q.B. O‘rta Osiyo daxmalari (Shimoliy Baqtriya misolida): tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2024. – B. 3–20.

tabiiy-geografik muhiti bilan uzviy bog'liq holda kechgan murakkab tarixiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Mintaqaning keskin kontinental iqlimi, ya'ni sovuq va issiqning keskin almashinuvi, qurg'oqchilik va suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj qadimgi aholi tafakkurida dualistik dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'lgan. Zardushtiylikdagi ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik kabi qarama-qarshi tushunchalar faqat diniy-falsafiy konstruktsiya emas, balki real tabiiy muhitning aksidir. Ayniqsa, quyosh nuri va

issiqlikka ehtiyoj kuchli bo'lgan hududlarda yorug'likning ezgulik timsoli sifatida ulug'lanishi, zulmatning esa salbiy kuch sifatida talqin etilishi tabiiy sharoit bilan chambarchas bog'liq. Avesto matnlari hamda arxeologik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suv, yer, olov va havo kabi tabiat unsurlarining muqaddaslashtirilishi Markaziy Osiyo ekologik sharoitining bevosita mahsuli hisoblanadi. Bu unsurlar qadimgi jamiyat hayotida yashash va barqarorlikning asosiy omili bo'lganligi sababli diniy darajaga ko'tarilgan.



2-Rasm Kayrit. Kd_01 dahmasi topilmalari



3-rasm. Kayrit dahmasi (Kd_01_003 va Kd_01_004). Aerofoto

16. Toshaliyev Q.B. O'rta Osiyo daxmalari (Shimoliy Baxtriya misolida): tar. fanl. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2024. – B. 3–20.
17. Оранский И.М. Авеста. Вендидаг с переводом и комментариями. – М., 1959.
18. Грантовский Э.А. Иран и иранцы до Ахеменидов. Основные проблемы. Вопросы хронологии. – М., 1998. – С. 106-107.
19. URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/География_Авесты